

Date: 17<sup>th</sup> May-2025

**ZARDO‘ZLIK SAN‘ATI , ZARDO‘ZLIKDA ISHLATILADIGAN ASBOB  
USKUNALAR**

**Ismailova Momogul Hamraboy qizi**

Urganch davlat pedagogika instituti, Texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi

**Rustamova Zuhra Bahodir qizi,**

Urganch davlat pedagogika instituti, Texnologik ta'lim 3-kurs talabasi

**Eshchanova Saxiba Kadirberganovna**

Urganch davlat pedagogika instituti, Texnologik ta'lim 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zardo‘zlik san‘ati tarixi va uning rivojlanishi, Zardo‘zlikda ishlatiladigan materiallar (gazlamalar turlari, karton, zar iplar) haqida ma'lumotlar berilgan. Zardo‘zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar bilan ishlash jarayonlari bilan tanishtirish. Zar ipni o‘rash tartibi bilan tanishtirish. O‘zbek milliy urf odatlari qadriyatlari xalq amaliy san‘ati va bezaklari xalq hunarmandchiligi bizgacha etib kelgan meroslar haqida tushuncha berish. Zardo‘zlik san‘atining kelib chiqishi va rivojlanishi haqida tushuncha berish.

**Аннотация:** В этой статье представлена история и развитие искусствовозошива, информация о материалах, используемых в зардозле (типы тканей, картон, золотые нити). Ознакомление с процессами работы с инструментами, используемыми в зардозле. Введение в порядок наматывания золотой нити. Понимание ценностей узбекских национальных обычаев, народного прикладного искусства и декоративно-прикладного искусства, которые дошли до нас в наследство. Понимание происхождения и развития искусства зардозла.

**Annotation:** vieu etoy statye predstavlena istoriya you razvitie iskusstvozoshiva, information o materials, ispolzuyemykh vieu zardozle (tipa tkanei, carton, zolotye niti). oznakomleniye se protsessami rabot se instrumentamy, ispolzuemimi vieu zardozle. vvedeniye vieu poryadok namativania zolotoy niti. ponimanie tsennostey uzbekistan natsionalnykh obychayev, narodnogo prikladnogo iskusstva you decorative-prikladnogo iskusstva, kotorye doshli do nas vieu nasledstvo. ponimanie proiskhozhdeniya you razvitiya iskusstva zardozla.

**Kalit so‘zlar:** angishvona, korcho‘b, xorak, gazlama, zardo‘zi, patila, so‘zana.

**Ключевые слова:** ангішвона, корчоб, хорак, газлама, зардози, патила, сўзана.

**Klyuchevyye slova:** angishvona, korchob, chorake, gazlama, zardozee, patila, suzano.

**Kirish.** Qadimda ham, hozir ham zardo‘zlik bilan shug‘ullanadigan hunarmandlarni “zardo‘z” deb atashadi. O‘zbekiston kashtachiligini noyob turi zardo‘zlik san‘atisiz to‘la tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu san‘at o‘tgan asrning o‘rtalarida Buxoroda gurkirab rivojlangan. U yerda mohir ustalar amir saroyining ustaxonalarida amir va uning saroy ahli kiyadigan dabdabali kiyimlarga pardozi berishgan. Zardo‘zlik odatda erkaklarga mansub bo‘lgan va ular o‘z hunarini bolalariga meros qilib qoldirishgan.



Date: 17<sup>th</sup> May-2025



Buxoro zardo'zi ashyolarining deyarli hammasi amir saroyining ehtiyoji uchun ishlatilgan, faqat juda oz miqdorigina sotish uchun bozorga chiqarilardi. U paytda zardan tikilgan erkaklar kiyimlarini faqatgina xonga va uning qon- qarindoshlariga tegishli insonlar kiyar edilar. Hech kim, hatto eng katta amaldorlardan birortasi ushbu qimmatbaho kiymlarni o'ziga buyurtirishga haqqi yo'q edi. Ular bu kiyimlarni amir sovg'a qilgandagina kiyishlari mumkin edi. Ayollar va bolalarning zardo'z kiyimlarini esa faqatgina badavlat xonadon a'zolari kiyishga haqli edilar. Zar va kumush ip bilan erkaklar to'ni, salla, do'ppi, shalvar, poyabzallar, ayollarning ko'ylak, kamzul kaltacha, peshanaband, ro'mol, etik va tuflilari tikilgan.

Zardo'zlik - qiziqarli va ijodiy ish bo'lib, u insonga ko'p quvonch keltirishi, bo'sh vaqtda ermak bo'lishi, insonni nafosat olamiga olib kirishi mumkin. Zar tikish usullarini o'zlashtirayotganda hamma narsa birdaniga yaxshi chiqmasligi mumkin, chunki zardo'zlik sabr-toqatli, e'tiborli, tartibli bo'lishni talab etadi. Chidamli bo'lish lozim. Kerakli malakalar egallagan sayin ish asta-sekin osonlasha boradi.

Zardo'zlikda ishlatiladigan materiallar (gazlamalar turlari, zar iplar). Zardo'zlik buyumlarining xususiy texnologiyasi, o'sha buyum uchun material tanlash va uni bichishdan boshlanadi. Zardo'zlik mahsulotlarining asosiy xususiyatlaridan biri ularning sirtida zardo'zi naqshlarning bo'rtib turishidir. Shuning uchun, naqshlar tagiga tukli material ishlatiladi. Zardo'zlikda asosiy gazlamalardan duxoba, velyur gazlamalari ishlatiladi.


Zar iplardan tashqari zardo'zlikda jaydari rangdor ipak iplardan ham foydalanib, ular asosan gullarga qo'shimcha oro berishda hamda matoga zar yo'l tushirishda ishlatiladi.

Zardo'zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar.



1-Rasm.Zar ip

Chambarak uzunligi 320 sm gacha bo'lgan ikkita teng yonli yog'och dasta va ularning maxsus qismida harakatlanuvchi silliq taxta, ya'ni shamshirakdan iborat. Shamshirakdagi ovalsimon o'yiqlar yog'och dastalarga mato tortilganda ularni tarang ushlab turishga xizmat qiladi.



**2-rasm. Zardo'zlikda ishlatiladigan asbob uskunalalar.**

Korcho'bning ikkinchi qismi xoraklardir. Xoraklar yog'och poylar bo'lib, ishlagan vaqtda chambarak ular ustiga qo'yilgan, chunki qadimda zardo'zlar ko'rpacha ustida o'tirib, ish tikishgan.

Hozirgi zamonaviy sexlarda metallardan (temir va uning qotishmalaridan) tayyorlangan zardo'zlik dastgohlari ishlatiladi. Bu sexdagi zardo'zliki dastgohlarni ikki turga bo'lish mumkin:

1. Kichik o'lchamli uy - ro'zg'or buyumlari va zardo'zlik kiyim - kechaklarni tikish uchun mo'ljallangan dastgohlar;

2. Katta o'lchamdagi buyumlarni, masalan, zardo'zi gilam, so'zana va hokazolarni tikishga mo'ljallangan dastgohlar. Ular tuzilishi bilan emas, balki chambarak qismining o'lchamlari bilangina farq qiladi, xolos.

Zardo'zlikda korcho'pdan so'ng turadigan asbobdan biri - patila hisoblanadi. Patila - to'rt qirrali va nafis qilib tarashlangan, ichi kavlanib, qo'rg'oshin quyib vazminlashtirilgan, uzunligi 18 - 20 sm li oddiy yog'och tayoqcha. Patila zar iplarni zich va bir tekis qilib o'rashda ishlatilgan, bu tikilayotgan zardo'zning bir tekis chiqishiga yordam bergan, zar ipning chalishib isrof bo'lishiga yo'l qo'ymagan.

Zardo'zlikda angishvona ham zarur. Chunki zardo'zlik naqshlari faqat qo'lda tikiladi. Angishvona igna qo'lga kirib ketmasligi uchun ishlatiladigan metall g'ilofdir. Uning ustki va yon tomonlarida igna toyib ketmasligi uchun chuqurchalar o'yilgan.

Zar iplardan foydalanishdan ilgari ular belgilangan chegarada uzun qilib olinadi va patilaga 4 qavat qilib, ya'ni zar o'raydigan cho'pga o'raladi. Zar iplar to'g'ridan-to'g'ri patilaga o'ralmasdan, avval oddiy ip patilaga mahkam qilib bog'lanadi, so'ng shu ipga zar iplar ulanadi. Zar iplar to'g'ridan-to'g'ri patilaga ulansa, tezda uzilib ketishi mumkin. Zar iplarni o'rayotganda ularning tekis o'ralashiga e'tibor berish zarur. Keyin zar ip bilan maxsus kartondan kesilgan gullar ustidan tikib chiqiladi.



Date: 17<sup>th</sup> May-2025



3-rasm. Zardo'zlik san'ati



4-rasm. Zardo'zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar

Angishvona - forsha, angusht, ya'ni barmoq, vona saqllovchi degan ma'noni bildiradi. Yostiqlik, ko'rpa tikishda qo'lga igna kirib ketmasligi uchun barmoqqa kiyiladigan metall g'ilof.

Angishvonaning ustki va yoni ignani keti qadaladigan, ya'ni nina toyib ketmasligi uchun chuqurchalardan iborat bo'ladi. Qadimda metall kam bo'lganligi uchun charmdan ham tayyorlangan.





**5-rasm. Angishvona**

Xulosa qilib shuni aytish kerakki texnologiya fani maqsadi o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jara yonlari hamda kasblar bilan ta'nishtirish, ularda dashtabki mehnat ko'nikmalari va malakalarini, mehnatga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish, ularni mehnat va kasblarni qadrlashga, ularning ahamiyatini tushunishga o'rgatish, ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash orqali kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirish hamda jamiyat va shaxs fa'roligini yo'lida mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifat va tafakkurlarini rivojlantirishdan iborat. O'quvchilarga xalq hunarmandchiligi kasblarini o'rgatish orqali xalqning milliy ruhini, yashash tarzini, an'analarni tiklash va rivojlantirish. Milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining boy merosini o'rgatish, ulardan o'z amaliy faoliyatlarida foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlash, o'quvchilarda umum mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularning qiziqishi, qobiliyati, kasbiy moyilliklariga ko'ra, kasb hunar turlarini tanlashga asos bo'ladigan sifatlarni, umum mehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Texnologiya fani bo'yicha "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tizimlarida o'quv dasturlarining uzviyligini ta'minlash konsepsiya" Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Ilmiy-metodik Kengashining 2021-yil 29-oktabrdagi yig'ilish (3-son bayonnomasi) qarori bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.
2. Sharipov Sh. S., Qo'ysinov O.A., Toxirov O.O., Abdullayeva Q. M., Nasrullayeva F. A., Madaipov A. A. Texnologiya : 6-sinf uchun darslik – Toshkent : Respublika ta'lim markazi, 2021.
3. Muslimov N.A. IV1 91 Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash: darslik N . A. Muslimov, Sh.S. Sharipov, O.A.Qo'ysinov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.
4. Internet saytlari.